

Она юртинг — олтин бешигинг

ТОНГ ЮЛДУЗИ

Ўзбекистон болалари ва ўсмирларининг газетаси

Газета 1929 йил 1 августдан чиқа бошлаган

№ 51 (66280)
2000 йил 21 декабрь, пайшанба

Сотувда эркин нархда

УМРИМИЗГА ЖОНҚАДАР ПАЙВАНД - ВАТАН!

Ўзбекистоним - жонажон юртим! Тупроғи зар, ҳосили гўшар, инсонлари сахий, меҳрибон диёр! Дунёнинг қай бир гўзал бурчагига бормайлик, дам ўтмай юрт соғинчи дилимизни ўртаб, ўзига чорлайверади. Ўзбекистоним бўйнида шода-шода маржондек терилган Самарқанду Бухоро, Термизу Хоразм, Хива-ю Фарғона кўз ўнгимиздан ўтаверади.

Ота-боболаримиздан бизга мерос бўлиб келаётган бир эътиқод бор: тугилиб ўсган Ватанни севиб -ардоқлаш, унинг ҳар қаричини муқаддас билиш. Дунёдаги барча гуноҳларни кечириб бўлмайди. Лекин Ватанга хиёнатни кечириб бўлмайди. Чунки у онамиздек ардоқли, унингдек ягона. Тоғу тоши, еру суви, сабза гиёҳидан тортиб, довдарахтларигача умримизга жон қадар пайванд. Болалигимиз, бахтиёр дамларимиз, қувончу қайгуларимиз у билан бирга кечади.

Ватанни севиш - ундан шунчаки гурурланмоқ дегани эмас. Уни дил-дилдан ҳис қилмоқ, у билан нафас олмақ, у билан ҳамнафас яшамоқ керак.

Мустақиллигимиз шарофати билан ота-боболаримиздан қолган анъаналаримиз, урф-одатларимиз, қадриятларимиз қайта тикланди. Маросим ва удумларимиз халқимизга қайтди. Ўзлиги, миллий гурурини ҳимоя қилгани боис қатағон қилинган А.Икромов, Фитрат, А.Қодирий, Чўлпон, У.Носирларнинг ёмон отлиқ қилинган номлари оқланди. Бугунги истиқлолимиз ана шундай қурбонликлар эвазига қўлга киритилган, десак хато бўлмайди.

Юртимиз кундан кунга чирой очиб, кўркамлашиб бораёпти. Бир неча йил аввал келган одам бугунги Тошкентимизни таниёлмай қолади. Биз ёшларнинг илм чўққиларини эгаллашимиз учун янги-янги имкониятлар очилмоқда. Бунинг учун авваламбор юртбошимиздан миннатдоримиз.

Гўзал **УМАРОВА**,
Сирғали туманидаги 322-мактабнинг
8-синф ўқувчиси.



Умримнинг давомчиси - болажоним, бўл омон!

КЎХНА ВА НАВҚИРОН ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН

Ўзбекистонда 15-18 декабрда Қорақалпоғистон маданият кунлари бўлиб ўтди. Ҳаяжон ва меҳр улашган тантаналарда қариндошлар учрашди. Оғанилар дийдорлашди. Чиндан ҳам ҳаяжонли тантаналарда таъкидланганидек, француз ёки немислар келса, дўстлик учрашуви бўлажак. Қорақалпоқлар эса ўз оғаниларимиздир. Чиндан ҳам, қариндошлар дийдорлашуви кўнгил соғинчларини шеър ва кўшиқларда, ўлану айтишувларда бироз қондиргандек бўлди.

Алишер Навоий номидаги Давлат Катта опера балет театрида маросимни Республика Бош вазири ўринбосари Ҳамидулла Кароматов очди. Катта наъшчилар театр биноси олдида қурилган қорақалпоқча ёзги ва қишки ўтовда меҳмон бўлдилар. Театр сахнасида ташкил этилган. Нукус шаҳар Ержон Бахши номидаги болалар санъати мактаби ўқувчиларининг чизган расмларидан ташкил этилган кўрғазмани ва санъат усталарининг катта концертини томоша қилдилар.

Маданият кунлари режасига мувофиқ Ўзбекистон Бадий Академиясининг Марказий кўрғазмалар залида қорақалпоғистонлик таниқли рассомлар ва усталарнинг асарлари намуналаридан ташкил топган бадий кўрғазма намоён этилди.

Республика кўғирчоқ театрида болажонлар учун «Меҳнатдан роҳат», «Хийлакорлик» деб номланган спектакллар, Бердах номидаги театр актёрлари томонидан Келгесбой Раҳмоновнинг «Инжиқнинг муҳаббати» деб номланган спектакль намоён этилди.

Шунингдек, Давлат «Баҳор» рақ ансамбли биносида «Айкулеш» ва «Аму тўлқини» ансамбллари концерти, Мухтор Ашрафий номидаги консерваторияда «Қорақалпоқ сюитаси» ижро этилди.

Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасида Қорақалпоғистон ёзувчилари билан Маннон Уйгур номидаги санъат институти ва Абдулла Қодирий номидаги маданият институти талабалари билан учрашувлар бўлиб ўтди.

Темур **РЎЗИМАТОВ**.

СИНФДОШЛАРИМ



Танишган жойимиз бир азиз гўша,
Ёзгим келаверар, улуғлаб, мақтаб.
Қадим-қадимлардан ном ўша-ўша,
Билимлар маскани - қадрдон мактаб!

Умрбод эсдалик ширин хотира,
Эласам, тийилмас кўда ёшларим.
Кўз олдимдан нари кетмайсиз сира,
Сизни соғинаман, синфдошларим.

Тақдир палаҳмони айирди бизни,
Олиё манзилларга қадам ташладим.
Қуриб турсак ҳам бир-биримизни,
Сизни соғинаман, синфдошларим.

Ўтди болаликнинг маъсум дамлари,
Манзил сари елар умр қарвони.
Кўларимда қолди соғинч намлари,
Қалбда қайтмасликнинг ачиқ армони.

Сарвиноз **ЮСУПОВА**,
Қорақалпоғистон Республикаси,
Эликқалъа туманидаги
Қирғизбод қшилоғи.

ТИНЧЛИК АСРИ

Уйимизда китоблар кўп. Улар орасида биттасини қайта-қайта ўқиб чиқаман. Бу Тошкент вилоятининг Хотира китоби. Унда «Абзалов Маҳамат. 1941 йил Одесса жангида ҳалок бўлган», деган сўзлар бор. Менга қадрдон бу сўзларни Мустақиллик майдонидаги Хотира айвонида ҳам ўқиганман. Айтишларича исм-фамилиялардан иборат 35 та катта китоб бўлган экан.

Катта бобом Одесса томонларда жон бераётганларида бувам беш ёшда эканлар. Бувамнинг тоғалари икки қўлларидан бутунлай ажралиб уришдан қайтибдилар. Дадамнинг гапларига қараганда бувам Ўзбекистон телевидениесининг дастлабки ижодкорларидан эканлар.

Мен мана шу боболаримни кўришни жуда-жуда хоҳлардим. Афсус.

Ҳозир биз XXI асрга қадам қўйяпмиз. Ўша жанглар XX асрда қолиб кетсин. Янги аср - тинчлик асри бўлиб қолсин.

Азизжон **АБЗАЛОВ**,
пойтахтдаги 234- гимназия мактабининг
8-синф ўқувчиси.

«ТОНГ
ЮЛДУЗИ»ГА



КИЧИК ЖОРЖ БУШ! ПРЕЗИДЕНТЛИК МУБОРАК!

Ниҳоят 37 кун давом этган баҳсли ва мунозарали овоз бериш жараёнларидан сўнг, АҚШ президентлиги учун бўлиб ўтган сайлов ғолиби аниқланди. Умуман, ушбу президентлик учун сайловга 4 та номзод қўйилган эди. Улар қуйидагилардир: Демократлар партиясидан Альберт Гор, Республикачилар партиясидан Кичик Жорж Буш, Реформаторлар (Ислохотчилар) партиясидан Патрик Бюкенан, "Яшиллар Партияси"дан Ральф Нэйдерларнинг номлари президентлик учун номзод сифатида илгари сурилган. Лекин асосий баҳс икки номзод - Кичик Жорж Буш ва Альберт Гор ўртасида бўлиб ўтди.



АҚШнинг 43 президенти этиб, Республикачилар партиясининг вакили Кичик Жорж Буш сайланди. Жорж Бушнинг "Кичик" дейилишига сабаб, унинг отаси, яъни АҚШнинг 41-президентининг исми ҳам худди шундай Жорж Бушдир. Шунинг учун ҳам, ота-болани бир-биридан фарқлаш учун уларнинг исмлари олдида Кичик ва Катта сўзлари қўшиб айтилади.

Қуйида сизнинг эътиборингизга АҚШнинг 43-президенти ҳақида батафсил маълумот бериб ўтамиз.

БУШНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИ

Сийёсий майдондаги фаолияти: 1994 йилда 54 фоиз овоз тўплаб, губернаторлик учун бўлган сай-

ловда ғолиб чиққан. 1995 йилдан то ҳозирги кунга қадар Техас штатининг губернатори лавозимида ишлаб келмоқда. 1998 йилда шу лавозимга қайта сайланган, 69 фоиз овоз олган. 1988 йилдан, Катта Жорж Бушнинг президентлик даврида катта маслаҳатчи бўлиб ишлаган. 1978 йилда Республикачилардан Конгрессга аъзолик учун номзоди қўйилиб, бор-йўғи 47 фоиз овоз олган, шу сабабли бу лавозимга эриша олмаган.

Бошқа ишлаган лавозимлари: 1989-94 йилларда "Техас Рейнджерлари" профессионал бейсбол командаси бош менежерининг ўринбосари бўлиб ишлаган. 1975-86 йилларда "Буш Эксплорейшн Ойл энд Гэз" номли нефть ва газ компаниясининг директорлар бошқармаси раиси ва асосчиси. 1968-73 йилларда Техас миллий ҳаво гвардиясининг пилоти бўлган.

Олган таълими: 1968 йилда Йэл Университетида санъат бўйича бакалавр дипломини олган. 1975 йилда Гарвард Университетида бизнес факультетида бизнес - бошқарув бўйича таълим олиб, бакалавр дипломини қўлга киритган.

Шахсига оид маълумотлар: 1946 йилнинг 6 июлида Коннектикут штатининг Нью-Хейвен шаҳрида туғилган. Рафиқаси Лауре Велш Буш хоним. Иккита фарзанди бор. Диний эътиқоди бўйича - методист. АҚШ собиқ Сенатори Прескотт Бушнинг (Республикачи, Коннектикут штатидан) невараси ҳисобланади. Унинг отаси АҚШнинг собиқ 41-президенти Жорж Буш (у ҳам Республикачи, Техас штатидан). Укаси Флорида штатининг губернатори Джеб Буш.

ИСПАН ТЕННИСЧИСИ ДЭВИС КУБОГИНИНГ СОҲИБИ

Дэвис кубоги тарихида биринчи бор испан теннисчиси ушбу совриннинг соҳибига айланди. Ҳал қилувчи финал ўйинида ушбу чемпион - Хуан Карлос Ферреро ўтган йилги чемпион - австралиялик спортчи Лейтон Хит устидан ғалаба қозонди. Сетлар бўйича ҳисоб 6-2, 7-6, 4-6, 6-4 билан яқунланди.



БАРАК ИСТЕЪФОГА ЧИҚМОҚЧИ

Исроилнинг айна вақтдаги бош вазири Эхуд Барак яқин орада истеъфога чиқишини маълум қилди. У истеъфо ҳақидаги билдирув ҳужжатини мамлакат президенти Катцавга топширди. Шу билан бирга Барак яна бир бор ҳукумат раиси бўлиш учун кураш олиб боришини таъкидлаб ўтди. Исроил конституциясига кўра, янги бош вазир яқин 60 кун ичида аниқланиши лозим. Мухолиф партиянинг етакчиси Ариэл Шарон Исроилнинг сайлов тизимига ўзгартиришлар киритилиши кераклигини айтди. Унинг фикрича, амалдаги сайлов қонунларига қуйидагича ўзгартириш киритмоқ лозим: Янги бош вазирлик лавозимига нафақат Эхуд Баракнинг ўзи балки ундан олдин бу лавозимда бўлган Беньямин Нетаняху ҳам бош вазирлик учун курашмоғи керак. Нетаняху айна пайтда Ликуд блокнинг вакили бўлиб, Исроилда у Эхуд Барак-

дан кўра обрўлироқ ва машҳурроқ ҳисобланади.

БЕНЬАМИН НЕТАНЯХУ БОШ ВАЗИРЛИККА ДАЪВОГАР

Эхуд Барак истеъфога чиқиши ва муддатдан олдин сайловлар ўтказилишини эълон қилгандан сўнг Исроилнинг собиқ бош вазири Беньямин Нетаняху бош вазир бўлиш учун сайловларда ўз номзодини қўйишини таъкидлаб ўтди. Унинг фикрича, мамлакатта янги раҳбар керак, Барак фаластинлик жангариларга нисбатан етарли қаршилик ва жазо қўлланмага суекашлик қилган. Натижада Яқин Шарқдаги вазият кескин тус олган, зўравонликлар кучайган. Беньямин Нетаняху бош вазирликка даъвогарлик қилиши учун у парламент аъзоси бўлиши шарт. Айна вақтда Нетаняху ушбу юридик муаммони ҳал қилмоқда. Баракнинг Меҳнат партиясидан эса бош вазирлик учун унинг номзодини илгари сурди. Сайловлар яқин 60 кун ичида бўлиб ўтади.

ЖАНУБИЙ ҚУРИЯ ПРЕЗИДЕНТИГА НОБЕЛЬ МУКОФОТИ ТОПШИРИЛДИ

Норвегия пойтахти Ослода Жанубий Куриянинг президенти Ким Де Чжунга Нобель мукофоти топширилди. 75 ёшли президент Жанубий ва Шимолий Курия ўртасидаги ярашиш жараёнига ижобий таъсир кўрсатгани, икки давлат муносабатларини яхшилаб, мустақамлагани, демократия ҳамда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасида қилган самарали хизматлари учун Нобель мукофоти лойиқ деб топилди. Мукофот пули эса 1 млн. Еврони

ташкил этади. Ким Де Чжун ушбу мукофотни Шимолий Курия президенти Ким Чэн Ир билан бўлишга ололмастлигидан афсусланаётганини айтиб ўтди. У бундан кейин ҳам Шимолий ва Жанубий Курия ўртасидаги муносабатларни мустақамлашга ҳаракат қилишини таъкидлади. Анъанага кўра, Нобель мукофоти ҳар йили 10 декабрда, яъни ушбу мукофот фондининг асосчиси Алфред Нобель вафот этган кунда ўз эгаларига топширилади.

НАВОЗ ШАРИФНИНГ МУЛКИ МУСОДАРА ҚИЛИНДИ

Покистон ҳукумати вакилларининг таъкидлашича, мамлакатнинг собиқ бош вазири Навоз Шарифнинг шахсий мулклари мусодара қилинди. Уни мулкнинг нархи бир неча миллион долларга тенг келади. Ҳокимият тепасига генерал Первез Мушарраф келганидан сўнг Навоз Шариф умрбод қамоқ жазосига маҳкум этилган эди. Лекин яқинда амалдаги ҳукумат унинг айбларини авф этди. Навоз Шариф оиласи билан Саудия Арабистонига сургун қилинди. У ҳозирда Жидда шаҳрида яшамоқда. Покистон оммавий ахборот воситаларининг хабар беришича, Навоз Шарифнинг оиласи ўз бойликларидан кечиниша рози бўлганлар. Аммо, иккала тараф ҳам расмий шартнома имзоланганини инкор этмоқдалар. Уларнинг таъкидлашича, Навоз Шариф Саудияга эмас, балки бошқа бир хорижий давлатга зарур тиббий даволаниш учун кетган.

ГРУЗИЯДА ЎҒИРЛАНГАН БМТ ВАКИЛЛАРИ ОЗОД ЭТИЛДИ

Бундан бир неча кун аввал Грузиядаги БМТ миссиясининг офицерлари - поляк ва грек миллатига мансуб икки киши номаълум шахслар томонидан ўғирлаб кетилган эди. БМТнинг ушбу икки ҳарбий кузатувчиси Россия тинчликпарвар кучлари ва Абхазия қуроли бўлинмаларининг постлари ўртасидаги Кодор дарасида, ўз хизмат вазифаларини ўтаётган чоғларида ўғирлаб кетилганлар. Кодор дараси Лата қишлоғида жойлашган. Аввалроқ, яъни 1998 ва 1999 йилларда ҳам БМТнинг

бошқа кузатувчилари айнан мана шу Кодор дарасида йўқолган эдилар. Ушбу икки ҳолатда ҳам кузатувчиларни ҳеч бир қаршилик ва шартсиз озод қилган эдилар.

Бу сафар ҳам БМТ вакиллари маҳаллий ҳукумат ва БМТнинг фаол ҳаракати билан жиноятчилар қўлидан озод этилди.

БМТнинг ҳарбий кузатувчилари бу ерда Грузия ва Абхазия ўртасидаги чегара муаммосининг тинч йўл билан ҳал қилинишини назорат қилмоқдалар.

ХИТОЙДА "ФАЛУН-ГОН" АЪЗОЛАРИНИНГ НАМОЙИШИ

Хитойда халқаро инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш куни нишонланди. Шу муносабат билан Хитойда фаолияти таъқиқланган диний ҳаракат - "Фалун-Гон" аъзоларининг норозилик намоийиши бўлиб ўтди. Улар сўз ва виждон эркинлигини талаб қилмоқдалар. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари Тянанмен майдонида ушбу ҳаракатнинг 25 та аъзосини ҳибсга олдилар. "Фалун-Гон" аъзоларининг митинги Сянганда ҳам бўлиб ўтди. Британиянинг собиқ мустамлакаси ҳисобланган Сянганда "Фалун-Гон"нинг фаолияти таъқиқланмаган. Шунинг учун ҳам ҳаракат аъзоларининг намоийишларига маҳаллий ҳукумат қаршилик қилмади.

"КОУЛ" КЕМАСИНИНГ ҲАЛОКАТ САБАБЛАРИ АНИҚЛАНМОҚДА

Яман ҳукумат вакилларининг айтишларича, АҚШ кемаси "Коул"нинг портлаш сабабларининг аниқланиш жарёни яқунланди. Ушбу кемани портлатишда қатнашган ва унга раҳбарлик қилган террорчиларнинг номлари ҳам айтиб ўтилди. Унга кўра, портлаш уюштирувчиси Муҳаммад Омар ал-Харразий

экан. У бир неча камикадзеларни ёллаб, уларни катта пул ва портловчи моддалар билан таъминлаган. Ҳозирда ушбу террорчи халқаро қидирувда ҳисобланади.

Шоҳруҳ КАРИМБЕКОВ
тайёрлади.

-Xayr e toshdan yasagan uylarimiz!
 -Xayr e o'rmondagi daraxtlar! Deyishib goh yig'lashib, goh kulishib uchib ketishibdi. Samolyot tarllab orqasidan ko'm-ko'k tutun chiqazib parvoz olibdi. Keyin xuddi vertolyotga o'xshab goh tepaga, goh o'ngga, goh chapga uchavertibdi. Samolyotning qiyg'irnikiga o'xshash qayrima tumshug'idan "qo'rtqamading, o'zingni yopqotmading, dunyo mardlariniki, mana murodingga etding" degan so'zlar tinmay eshitilavertibdi-eshitilavertibdi.
 -Osmo vaqti bilan necha oyu necha yil uchganlarini eslay olmasdilar-ku, lekin Rasuljonning parvoz mahallida 11 marta qorni ochganligini hisobga olishib, shundan parvozda qancha vaqt bo'lganlarini tahmin qilishibdi. Samolyot 12 qavatli uylarining o'rtasiga qurtigan bolalar o'ynaydigan maydonchadan ko'tarilgan ekan. Yana xuddi o'sha yerga yumshoqina qo'nibdi. Soraxon, Xumoyun, Rasuljon birlig' ketin sakrab pastga tushishibdi. Kulni boshqarayotgan Farruh hammadan keyin tushibdi. Qiziq, maydondagi odamlar ular osmonga parvoz qilgan mahalda qanday baxshashayotgan bo'lsa, yana o'shanday baxshashayotgan emish.
 -Uchar tarelkalar o'g'irlab ketdi ularni.
 -Yo'q bilimaysan. Samolyot to'satdan uchib ketdiki, demak sehtli ekan u.
 -Bo'lmagan gap, samolyotning ichida yashirincha matot bo'lgan...
 Xullas, mana sunaqa pastu-baland gaplaru, tortishuvlar hech to'xtamasdilar.
 Keyin to'satdan hammalari jim bo'lishib osmon sayohatlaridan hayrat tikilib jim bo'lib qolishibdi.
 Nega jim bo'lib qolishdi ekan, sababiga hech kim tushunmas emish.

Endi echki sutini ichishni o'rganishibdi. Tovoqqa o'xshab ketadigan sariq toshlardan qatiq ham ivitishar ekan. Yovvoyi o'sgan o'tlardan tag'in zaharlanib qolmay deya oz-oz yeyib ko'rishibdi. Qorinlari og'rimagan ekan, endi ko'p yeya boshlashibdi. Anormi, nokmi olmami nomini bilishmas ekan, baribir to'yib-to'yib yeyishar ekan. Bu yerlar asli yovvoyi echkilarning makoni ekan. To'p-to'p yashashar ekan. Bir to'da ikkinchi to'daga hech qo'shilmas ekan. Bahaybat takalar o'z to'dasiga boshchilik qilib, uzun-uzun soqollarini silkillatib, barcha echkilarning oldida yurar ekan. Goho mana shu to'dalar boshlig'i bo'lmish bahaybat taqalar bir-birlariga shohlarini qirsillatib urib, yerga dumalatib, qorniga suzib, mayib ham qilib qo'yar ekan. Rasuljon bitta mayin bo'lgan kattaligi fermada boqiladigan bahaybat takani dori-darmon berib tuzatib asta-sekin ustiga minib yaylovlarni aylanilgan bo'libdi.

Avvaliga dadalarimiz kelib bizni olib ketishadi deb yo'l poylashibdi, tepalikka chiqib goh osmonga, goh o'rmon tomonga rosa tikilishibdi, yig'lab-yig'lab ham olishibdi. Bora-bora o'rganib ham ketishibdi. Soraxon qo'l bola xumdonga pishirgan katta xumlarda echkilarning sutidan qaymoq, saryog'lar yig'ar ekan. Echkilarning junidan kesib, ostilariga qalin-qalin ko'rpalar, ustilariga yumshoq-yumshoq yoping'ichlar tayyorlashar ekan. Yovvoyi mevalardan mo'l-mo'l quritib qishga tayyorgarlik ko'rishar ekan. Ba'zan haligidek ota-onalarini, o'rtoqlarini sog'inib yig'lay-yig'lay deb turganlarida to'satdan, qadrdon samalyotlarining tumshug'idan "Qo'rqmasang, o'zingni yo'qotmasang, murodu-maqsadingga yetasan, dunyo botirlarniki, dunyo mardlarniki, degan tanish o'zbekcha ovoz eshitilib qolar ekan". Shunda Farruh xiqillashidan to'xtab:

-Men botirman, to'g'rimi opa.-deb so'rarkan Soraxondan.
 -To'g'ri hammamiz botirmiz,-gapga qo'shilarkan

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda emas, shu o'zimizni kunlarda Toshkent shahrida eng aqlli odamlarni ham shoshirib, o'ylantirib qo'yadigan siri bir voqea yuz beribdi-ki, butun shahar ahli hayratdan yopqasini ushlab qolibdi. 12 qavatli uylarining qo'rtasiga dadalari qurib bergan qizil qum to'kilgan, keng, bahavo maydonchada jamiki bolalar qiyqirishib, yugurishib, o'nbalog' otishib o'ynashayotgan ekan. O'ynashayotganlar orasida Farruh degan hushyorina bir bola bor ekan. Tug'ilgan kunda dadasi sovg'a qilgan rosmana samolyotlardan hech qolishmaydigan samolyotga opasi Soraxoni, akasi Xumoyuni, mehmonga kelgan Rasuljon o'rtog'ini chiqazib olib, goh o'ngga, goh chapga haydashib, qiyqirib kulishib, juda-juda mazza qilishayotgan ekan. To'satdan, ha-ha, to'satdan siri voqea yuz beribdi-ku, samolyot tarllab ovoz berib orqasidan ko'm-ko'k tutun chiqazib, avval 12 qavat uylar barobar uchibdi, keyin xuddi lochin qushdek tumshug'ini oldinga cho'zganicha havolab borib-borib pag'a-pag'a bo'lib suzayotgan oppop bulutlar orasida ko'zdan g'oyib bo'libdi.
 -Xayr, dadajon! - qichqiribdi Farruh osmondan turib.
 -Opajon, qozondagi suv toshib ketga, men aybdor emasman, - deb baqiribdi Soraxon.
 -Oyljon, men ertaga bog'chaga bormayman, - debdi Rasuljon.
 Xumoyun ham bir narsa deb qichqirgan ekan, samolyotning tarllagan ovozi eshitirgani qo'ymabdi. Samolyot bo'lsa, uchgandan uchavertibdi-uchavertibdi. Goh o'rkach-o'rkach bo'lib, bir-birini quvlab borayotgan oppop bulutlar orasidan sho'ng'ib o'tarishib, goh qop-qora bulutlar samolyotni yutib yo'q qilib yuborarmish. Bir qarasa charaqlab oftoq chiqarmish, yana bir qarasa shunaqangi zimiston tun bo'larmish-ki, shunaqaga quyup bo'larmish-ki, Rasuljon hatto o'zingning burnini o'zi

tosh terib kelib, oldilariga qo'yib olishibdi. Xumoyun bo'ri kelsa shoshib qolmayin deb o'zini boshicha keladigan toshni qo'lida mahkam ushlab olgan emish. Og'ir sharoitda, hayoti xavf ostida qolganda odam bolasining aqli juda tez ham ishlab ketar ekan. Rasuljonning aqli ham shu paytda juda, judayam tez ishlab ketibdi.

-Olov yoqamiz! - deb sakrab ketibdi o'rnidan turib ketibdi u. - To'qqa borganda ko'rganman, toshni-toshga ursa olov chiqadi, urra, buni men topdim ur-ra-ra... men topdim.

-To'g'ri, - deb Soraxon ham mehmon ukasini ma'qullab, faqat, chaqmoq tosh topish kerak, chaqmoq toshdan olov tez chiqadi. Qora toshdan olov chiqmaydi... Qishloqqa borganda tosh terganmiz.

Qorong'i bo'lgani uchun oldilaridagidan qaysi biri chaqmoq tosh ekanligini bilisholmabdi. Axir bittasidan olov chiqib qolar deb, hamma toshlarni bir-biriga urishtiraveribdi-urishtiraveribdi. Bir mahal Xumoyunning ko'ylagi pov etib yonayotganini ko'rib qolishibdi. Tosh urushtirashayotganda uzilib chiqqan uchqunni Xumoyun ko'rmay qolgan emish.

-Ur-ra-ra-ra... Olovni men yoqdim, - deb Xumoyun o'rnidan turib ko'ylagini yecha boshlabdi.

-Tezroq yech, - deb baqiribdi Soraxon.

Hammalari esli-xushli bolalar ekan. Olov o'chib qolmasligi uchun nimalar qilish kerakligini bilishar ekan. Ko'z yumib ochguncha cho'p-xaslardan, qurib qolgan o'tlardan terib kelib olovni guldiratib yuborishibdi. Shunday guldiratishibdiki, olovning balandligi huv naridagi chinorlardan ham yuqoriroq bo'lib ketibdi.

-Ko'ylagim kuyib ketdi deb hafa bo'lma, - debdi Soraxon. Xumoyun ukasining ko'nglini ko'tarib, - mana shu yonimizda turgan ona echkinning jinidan qirqib, senga chiroyli ko'ylak tikib beraman.



(Ertak qissacha)

ECHKILAR XUMOYI

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

Kechasi bir-birlarining pinjilariga kirib uxlashibdi. Soraxon tez-tez uyg'onib olovga cho'p-xastdan tashlab qo'yarkan. Rasuljon bir-ikki uyg'onib 'Opa, ertaga bog'chaga bormasam maylimi' - deb so'rabdi. Farruh boshini xiyol ko'tarib, ko'zi yumuq emishu, qo'limdagi nonim qani, hozir yeb turuvdimku, - deb so'ragan emish. Xumoyun bo'ri kelsa uraman, deya katta toshni quchoqlaganicha tuni bilan hech uyg'onmabdi.

Ertalab qulog'idan cho'zib, oyog'idan tortib zo'rg'a uyg'otishibdi.

Ertalab o'rinlaridan turishsa, voy-bo'y yirtqich hayvonlardan qo'rqib pana-panada pisib, berkinib uxlaydigan boshqa echkilar ham bolasini bo'ri yeb ketgan ona echkiga ergashib, gulxan atrofiga shunaqa ko'p to'planishibdiki, hisobi yo'q emish. Bir xil echkilar yangi tuqqan ekan, chiroyli-chiroyli uloqchalari dikon-dikon qilib sakrashib yurishgan emish. Xumoyun men yoqqan katta gulxanga isinishga kelishdimi, gulxan himoyasida yirtqichlardan jonlarini saqlash uchun kelishganmi, yoki emchagimazdagi sutning yarmini sog'dirib tashlash sal yengilroq bo'lay deyishganmi, ishqilib nega kelishdiykin deb rosa o'ylabdi-yu lekin shuncha echkning bir yo'la yig'ilib kelganligiga hech tushunolmabdi. Farruh bitta echki bola bilan bosh urushtiraman deb ushlamoqchi bo'lgan ekan, ushlay olmabdi. Echkilarning erkagi - takalari shunaqa katta, shohlari ham o'tkir, soqollari ham qurt sotadigan chol bobonikiga o'xshab shunaqa uzun ekanki, odam astoyidil tikilsa qo'rqib ketar ekan. Rasul ana shu bahaybat taqalardan bittasini ushlab minmoqchi bo'lgan ekan, yaqiniga ham yo'latmabdi. "Ma-a",- deb yuborgan ekan, Rasul qochib borib opasining orqasiga berkinib olibdi.

Soraxon ko'p aqlli ham ziyrak qiz ekan. Oyijonisi bekorga asal qizim deb erkalamagan ekan. Ukalari sut ichib qornim og'riyapti, zvachka chaynagim kelayapti, qurt sotadigan chol

TONG YULDUZI - 2000



bobo qoldi, yerda yotmayman, shamollab qolaman deb yig'lashganida, hammalarini aldab, yupatarkan. Xuddi bog'cha opalariga o'xshab boshlaridan silab-silab, peshonalaridan o'pib-o'pib yupatar ekan. Echki sog'arkan, kechasi yoqishga o'tin tayyorlar ekan. O'tgan yili qishloqqa borganida loydan kosa yasab olovda pishiradigan kulol bobonikiga o'rtog'i bilan kirib, kosa qanday yasalishini, qanday pishirilishini ko'rgan ekan. Hatto o'sha bobosi Soraxon yasagan kosani olovda pishirib ham bergan ekan. Men ham kosa yasayman. Tosh ustiga qo'yib pishiraman, deb o'ylabdi-yu darhol ukalarini yordamga chaqirib, ishga kirib ketishibdi.



Yetti kun deganda, 14 ta kosa, 11 ta piyola, sal qiyshiqroq bo'lsada 5 ta lagan tayyor bo'libdi. Xumoyun sevinganidan kosani osmonga otib o'ynayman deb sindirib ham qo'yibdi. Odamning hayyoti xavf ostida qolganda u juda-judayam aqlli bo'lib ketadi, deganlari rost ekan. Hammalarining aqliga aql qo'shilaveribdi-qo'shilaveribdi. Rasul bilan Farruh echkilarning bolasiga o'xshab, mayin-mayin erkanlab marashini o'rganib sog'in echkilardan 4 tasini qo'lga o'rgatib olishibdi. Sog'ishni ham o'rganishibdi. Rasul sog'ayotganda Xumoyun echkning bo'ynidan quchoqlab boshini silab-silab turarkan. Ko'pincha echki bolaga o'xshab emaklab kelib chalqancha yotarkanda, echkning yumshoqqina emchagini og'ziga solib lo'qillatib so'rib olar ekan. Bir marta bilmasdan emchagini tishlab olgan, ona echki uni boshiga keltirib bir tepibdi. O'shandan buyon emishni bilmas ekansan deb, yoniga qo'ymayotgan ekan.

yoqimli ovoz eshitila boshladi. Farruh shoshganidan dovdirab yetasan, tayyorlan, yurtingga qaylasan", degan o'zbekcha "qo'rqmadim, o'zingni yo'qotmadim, endi murodingga Samolyotning qiyg'itkiga o'xshash qaytirma tumshug'idan kalla urushitish o'ynayotgan ekan.

o'zlarini olib kelgan samolyotning oldiga echki bolalari bilan yovvoyi gullarning urug'idan yig'ishga majbur bo'libdi. Farruh echkilaridan xabar olgani jo'nabdi. Soraxon o'zi yaxshi ko'rgan turg'azib olgan navvosdek takasini minib uzog' yayoqda mashhur bo'lishibdi. Rasuljon dori-darmon berib oyog'ga nonushta qilishibdi. Keyin hammalari har kungidek o'z ishlariga Tong otibdi, kun chiqibdi, qaymog'u sariyog'lar bilan kulishibdi.

qo'shib o'zi kulaveribdi. Hammalari charchab qolguncha bo'lgani uchun akalarga g'alati bo'lgani ucun akalarga Farruhning o'zi ham yaxshi bilarkan. Ayrgan gapi g'alati ya'ni osmondagi mamalakada tramvay bo'lmasligini Hammalari kulib yuborishibdi, nega desangiz bu yertarda ham ketaveraman.

-Ertaga ketaman,-debdi xiqillab,-tramvay bo'lmasa piyoda yosh kelmadim.

Farruh ozgina yig'lab ham olibdi. Yig'labdi-yu lekin ko'ziga muzqaymoq sotadigan semizxo'ini qayta-qayta eslashibdi. rosa gapga tushib ketishibdi. Onalarini, adajonlarini, -O'yloni-deya uyg'onib ketishibdi. Keyin uyqulari qochib hammalari bir ovozdand:

shunday qilishibdi. Qarangki, hammalari bir xil tush ko'rib, uxlashibdi, ustimiz ochilib qolsa, muzlab qolmaylik deb tashqarida havo juda sovuq ekan, bir-birlarining pinjiga kirib Turmushlari shu yo'sin kechaveribdi-kechaveribdi. Bir kuni olar ekan.

-Men adajonimni achomlab uxlayman,-deya bir xo'rsinib

deb orzu qilar ekan Xumoyun.

-Agar olib ketsak, men uni bo'g'chamga minib borardim,-derkan Farruh.

-Bizning ko'chada hech kim sherdan qo'rqmaydi,-derkan Rasuljon.

-Eh. Gapni cho'zmasalaring-chi, sho'rva sovib qolayapti,-deb urushib berarkan,-Soraxon.

Keyin kattakon toshqozonni o'rtaga qo'yib toshqoshiq bilan qaynoq-qaynoq sho'rvani po'rillatib ichishar ekan. Hammalariga ish teng taqsimlangan ekan. Soraxon 14 ta echkini



sog'arkan. Rasuljon sut pishirib, qatiq q i l a r k a n , q a y m o q n i qaynatib sariyog' tayyorlar ekan. Tayyor bo'lgan sariyog'larni Soraxon yasagan xumlarga quyib og'zini berkitar ekan. Unga olovkar


deb nom ham qo'yishgan ekan. Xumoyun yalpoq toshning ustiga o'tirib olib, suzmaldan hech charchamasdan qurt yasarkan. Qurtlar soni 17 mingga yetganda, 17 mingdan uyog'iga sanashni bilmagani uchun, qolganlarini sanamasdan qopga solaverarkan. Goho boshini ko'tarib:

-U yoqqa borganimda jvachkaga almashtiraman,-deb qo'yarkan.

-Men sariyog'imdan sotib, tarillatib otadigan avtomat olaman,-derkan Rasuljon.

Farruh bo'lsa nima deyishni bilmay:

yumshoq silab o'tarmish. Quyosh erkatab mayin-mayin nurlar Muzdekkin shabboda yengil-yengil esib, yuzlarini yumshoq-suvlar jarangli ovozi bilan yoqimli ashulalar aytarmish. o'sganmish, arqalarda jildirab zilol suvlar oqarmish, zilol qolganmish. O't-o'lanlar qalin hayratdan og'zi ochilib qolishibdi. Farruhning esa topolmay ancha mahal angrayib go'zal ekaniki, tarixiga so'z qo'ygan joylari shunday bir yo'tgan bir kenglikka qo'nibdi. chekkasiga, barta o'tlar o'sib borib, quyug' bir o'rmonning Samolyot ohista-ohista pastlab quchoqlashib jim turishaveribdi.



hafa bo'lishni ham bilisholmay borayotgan emish. Qo'rqib ketishibdi. Xursand bo'lishni ham, o'q tekkan qush kabi lapanglab-lapanglab pastga tushib samolyotni varillab turgan ovozi to'satdan o'chib, o'zi xuddi uchibmizda deb o'ylashibdi. Bir vaqt bunday qarasa, ham juda-juda ochqab turganidan, demak, bir yilcha osmon vaqti bilan bir yilda bir marta ochqat ekan. Hozir Rasuljon sezib qolibdi. Nega desangiz, Rasuljonning qorni uchganlaridan keyin, bir yilcha uchganlarini hammadan oldin bo'lganini bilisha olmadim-ku, osmon vaqti bilan bir yilcha davom etaveribdi-etaveribdi. Yer vaqti bilan vaqtning qancha Osmondagi gashli, faqat huzurdan iborat bo'lgan safar yetolmayasan degandek, tezgina havolab uchib ketibdi.

ushlab, ko'rmog'chi ham bo'libdi-ku, lekin yulduz menga yulduzlariga tegay-tegay deb qolibdi. Xumoyun bitta yulduzni uchibdi, Soraxonni bo'yi sal novcharoq emasmi, boshi

socharmish.

-Juda mazza-ku! - debdi Farruh quvonchini ichiga sig'dira olmay.

-Voy, lolalar ham ochilib yotibdi, - debdi gullarni yaxshi ko'radigan Soraxon.

-Men endi hech narsadan qo'rqmayman, - dermish Rasuljon. Aslida bu yerda yertqich hayvonlar bo'lsa-ya, dag'-dag' deb qaltirayotgan, shunday bo'lsada men hech narsadan qo'rqmayman deb yuboribdi.

-Qo'rqmanglar, agar bo'ri kelsa, mana bunday tepib yerga yiqitaman, - deb Xumoyun sakrab o'ng oyog'i bilan havoni bir tepib qo'yibdi.

-Hayriyat, o'zlarini yo'qotishmabdi. Dadil bo'lishibdi. Adirlardan-adirlarga o'tib, anvoyi gullardan terib chiroyli guldastalar yasashibdi. O'rmon ichidagi tor-tor so'qmoqlardan yurib qo'ziqorinlar terishibdi. Har qoziqorinlar emishki, bir xillari Rasuljonlarnikidek xontaxacha kelarmish. Dumaloq o'sganlari esa Farruhning boshicha kelarmish.

-Nihoyat o't-o'lanlar bilan qoplangan bir go'zal tepalikka to'xtab, endi nima qildik deya o'y surib ketishibdi. O'zlari ham behad charchashgan, ochqashgan ekan. Ochlik zo'r kelib ukalari asta-sekin hiqillay boshlashgan ekan, Soraxon nima qilarini bilmay xuddi echki bolasiga o'xshab marab yuboribdi. Qishloqdagi buvisinikiga borganda echki bolalariga taqlid qilib ulardan ham chiroyliroq marashni o'rganib olgan ekan. Bu yerlarda yovvoyi echkilar ko'p ekan. O'shalardan biri Soraxon tomonga asta-sekin kela boshlabdi. Uning jajji bolalarini bo'ri yeb ketgan ekan. Soraxonni ovozi o'sha bolasinikiga juda-juda ham o'xshab ketgan ekan. Ona echki Soraxonga yaqin kelib oyog'iga suykalarmish, iliqpina tilini chiqazib tizzalarini yalab-yalab qo'yarmish. Bolalar avvaliga sal-pal qo'rqishibdi. Xumoyun bo'ri bilan echkinging farqiga bormas ekan, bu

Samolyotning tushug'ini lochin qushni tushug'iga o'xshatib sal pastga egiladigan qilib yasalangan ekan. Bir mahal ana shu qaytirma tushug'idan "qo'rtqamasang, o'zingni yo'qotmasang, mard bo'lsang, murodu-maqasadingga etasan" - degan o'zbekcha ovoz eshitilib qolibdi. Ovoz Farruhning buvisinikiga ham, Rasulning bobosinikiga ham juda-juda o'xshab ketatish-ki, bunday ko'zlarini kattaroq ochib qarasa, oldilarida gorong'likdan boshqa hech narsa yo'q emish. Samolyot esa varillab uchgandan uchaveribdi-uchaverubdi. Osmo shunaga keng emishki, bolalar oldinga ketishmayaptimi hech bilishmas emish. Goh o'ng tomondan, goh chap tomondan lovilab yonib turgan meteoroidlar zuv-zuv etib ketatish. O'tayotganda osmonning yarmini charog'on qilib yoritib yuborat emish. Bir gal samolyot shunday balandlab

-Meni uyqum kelayapti, - dermish Xumoyun.

Rasuljon.

-Men hech ham qo'rtqamayman, botirman, - dermish

-Men sal-pal qo'rtqaypman - dermish Soraxon.

-Utra, men mazza qilayapman, - dermish ikki qo'llab

ketaveribdi-ketaveribdi.

Xullas, u bo'pti samolyot osmonda guvillab uchib

ustaga ko'rsatib olish kerak edi" dermish.

motorchalar bo'ladi, bolaga samolyot berishdan oldin zo'r

to'sadan g'irillab ishlab ketadigan kichkina-kichkina sehiri

cho'zib, baland ovoz bilan "Yapon o'yincholarning ichida

hammadan ham aqilliq odam bor ekan. O'sha bo'yini baland

deyishsa, boshqalari sehiri vovga yuz berdi dermish. Yana bitta

emish. Bir xillar "Uchar tarelkalar o'g'irlab ketdi ularni"

turishibdi. Jamol degan bola qo'rtqib dodlab ham yuborgan

Verda qolganlar esa yoda ushlab anchagacha angrayib

ko'rolmay burun o'tmiga qulog'ini ushlab-ushlab qo'yarmish.

hoynahoy bo'ri bo'lsa kerak deb o'ylab, keltirib tepmoqchi ham bo'libdi. Soraxon echki sog'ishni bilarkan. Qishloqdagi buvisi o'rgatgan ekan. Bunday qarasa, echkining yelini sutga to'lib, xamir qoradigan tog'aradek shishib ketgan emish. Bolasini bo'ri yeb ketgandan buyon ona echkining sutlari mana shu emchagiga yig'ilib shunaga shishib ketgan ekan. Soraxon achinibdi, juda-juda achinibdi, bechoraginam deb yunglaridan mayin-mayin silabdi-yu silayotib sutini sog'ib tashlasam yeli ancha bo'shab, joni huzur qilarmikan deb o'ylabdi. Ona echkini yana qayta-qayta silabdi. G'avakdek osilib turgan emchagiga qo'l uzatib ohista-ohista sog'a boshlabdi. Iliqqina sutdan bir-ikki marta hovuchlab ichib ham olibdi.

-Menga ham ichir! - debdi qorni ochib turgan Rasuljon.

-Menga ham ikki hovuch berasan - harxasha qilibdi Farruh.

-Mening qornim katta, mana ko'ringlar uch hovuch ichaman, men hammangdan kattaman, - deb ataylab oyog'ini uchida turib bo'ynini baland ko'rsatibdi Xumoyun.

Soraxon ham aqlli, ham tadbirkor qizlardan ekan. Janjal chiqmasin deya uchovi ukasini echki bolalariga o'xshatib emaklatib qo'yib, hovuchidagi iliqqina sutni navbati bilan ichira boshlabdi. Qiziq, xuddi buloqdan chiqayotgan ona echkining suti hech ado bolmas emish.

Kech kira boshlabdi. Tun borliqqa asta-sekin qora pardasini yoyibdi. O'rmon tomondan yirtqich hayvonlarning bir-biridan vahimali ovozlari eshitilarmish, och bo'rining cho'zib-cho'zib uvillagani, chiya bo'rining xuddi birovnini mazhara qilayotgandek ingichka chiyillashi, ayyor tulkinining chaqaloqdek ingalab yig'lashi, shexonning o'rmonni boshiga ko'tarib, atrofga dahshatu-vahshat solib qattiq o'kirgani eshitilarmish. Qo'rqib ketishibdi, juda-juda qo'rqishibdi. Bir-birlarining pinjiga kirib, dag'-dag' qaltirasharmish. Rasuljonning iyagi-iyagiga tegmay, birdan tishlarini taqillatarmish. Har ehtimolga qarshi 20 tadan

-Xayr gullarga to'lgan yaylovlari

-Xayr qadrdon echkilarimizi

samolyotga shay turgan samolyotga chiqishib:

yuklashibdi. Oxiri tirillashdan hech to'xtamay uchishga

yuklashaverishibdi-yuklashaverishibdi. Bir kecha-bir kunduz

shet bolasi... Hama-hammasini samalyotga

echki-yu Rasuljon minib yurgan baxaybat taka, o'rgatilgan

toshlaru, sut berib ularni ochlikdan qutqarib qolgan ona

echki jundan to'qilgan ko'rpa-choyshaplar, chaqmoq

qurtilgan yovvoyi o'tlar, 1 qop anvoyi gullarning urug'i,

14 xumda qaymoq, 31 ming donaga yaqin yog'li qurt, 3 qop

ko'p narsa yeb qoyishgan ekan. 21 ming xumda sarvog',

bo'lib ketibdi.

barcha mo'jizalardan, barcha ajoyibotlardan uylari chitroyli

yuborishibdi. Nega desangiz shu paytda ko'zlariga bu yerdagi

-Ketamiz, qadrdon uyimizga ketamiz!-barabariga qichqirib

shishirayotganga o'xsharmish.

kengayib, kattalashib borayotganmish. Xuddi kimdir puflab

yana bir mo'jiza yuz beribdi. Samalyotchilari asta-sekin

baqalox xolani juda-juda sog'inishgan emish. Qiziq. Shu paytda

emish, qolaylik deyishsa, ota-onalarini, muzqaymoq sotadigan

qilgan, o'zlarini egasi bo'lgan ajoyibotlardan ko'zlarini qiyimas

o'lishayotgan emish. Ketaylik deyishsa, bu yerdagi o'zlarini kashf

bo'libdi. Lekin bolalarining o'zlarini goho-ogho ikkilanib qo'ya

sayrashibdi. Yaylovdagi mayasalar chayqalib tabrik aytgandek

ochilgandek bo'libdi. Sevinchlariga sayroq qushlar qo'shib

sevinchlarini Har birining yuzida bamisoli chitroyli gul

eshitilarmish. Oh-oh o'sha paytlardagi ularning quvonchu-

hammalari yig'ilib kelishibdi. Yoqimli ovoz takror va takror

bilmay echki bolaga o'xshab nuqul sakratmish. Bir nafasda

qolibdi. Soraxon opasining oldiga yugurib borb, nima deyishini

Xumoyun.

-Biz bo'rilardan ham qo'rtqamaymiz, qo'rtqamaymiz, deyishibdi hammalari o'yinga tushib ketisharkan. Rasuljon barmoqlarini qimillatib o'ynarkan. Xumoyun oldinga egilib-egilib salom berib o'ynarkan, Farruh ikki qo'lini biqiniga qo'yib sakrab-sakrab o'ynarkan. Bir marta oldinga, bir marta orqaga sakrab o'ynarkan.

Shundan keyin kunlar ketidan kunlar o'taveribdi-o'taveribdi. Vaqt hisobini, asosan, Rasuljonning qorni ochgan va ochmaganligidan o'lchashar ekan. Uch marta och qolsa, bir kun o'tgan bo'lar ekan. Hisob 10 mingga yetganda, u yog'iga adashib ketishibdi, nega desangiz 10 mingdan u yog'ini sanashni hech birlari bilmas ekanlar. Lekin, baribir, bekor o'tirishmas ekan. Xumoyun echkilarning semizrog'idan tanlab so'yib, go'shtini nimtalashni o'rganibdi. Yaxshigina qassob bo'lib qolibdi. Rasuljon qizigan toshning ustiga go'shtning yopib pishirish mashqini olibdi. Farruh daraxtning navdasidan six yasab kabob pishirishni o'rganibdi. Soraxon bo'lsa, eh-he, 20 tacha hunar o'rganibdi. Echkining terisidan tikkan kavushini ko'rsangiz, og'zingiz ochilib qolar emish. Lekin eng zo'r bir ishni Xumoyun bajaribdi. O'rmon chekkasida ona sherning uyasi bor ekan. Xumoyun ko'pincha emaklab borib, daraxtning panasida berkinib turib, sherni kuzatgani-kuzatgan ekan. Nega bunday qilayotganini bilmas ekanu, baribir kuzatgani-kuzatgan ekan. Kunlardan bir kun ona sherni katta zaharli ilon chaqib olibdi-yu 12 kunlik bolasi yetimcha bo'lib qolibdi. Xumoyun ana shu yetimcha sherni jun qopga o'rab olib kelib, echki sutidan oz-oz berib boqib asta-sekin o'ziga o'rgatib olibdi. Avvallari ukasi Farruh bilan sherning bo'yniga jun arqon bog'lab galma-galdan yetaklab yurishar ekan. Keyinchalik minadigan bo'lishibdi.

-Sherning bolasini mingganimni adajonim bir ko'rsaydi!-

«Биз истеъдодли, фидойи болаларимиз, фарзандларимизга билим ва касб чўққиларини забт этишлари учун қанот беришимиз керак».

Ислом КАРИМОВ

ЁЗДА БОРУ ҚИШДА ЙЎҚ...

Мактабдаги жимжитлик ҳайронлигимизни оширди. Соатга қараймиз. Ун икки ярим бўлибди. Маълум бўлишича, юқори синф ўқувчилари дарсларни тугатиб, уйларига кетиб бўлишибди.

Ҳамроҳларимиз билан мактаб ичкарасига кирар эканмиз, у ердаги бетартиблик, йўлакларнинг чанг, ифлослиги диққатимизни тортди. Шундоққина мактабга кираверишдаги бир хонанинг деразасидан қандайдир латта-путталару кўрпа- ёстиқлар уюми кўзга ташланиб турарди...

Бизни мактабнинг илмий бўлим мудири Хотам ака Муҳиддинов қарши олдилар. Мактаб директори, туман депутати Умида опа Исоқова эса муҳим иш билан туман халқ таълими бўлимига кетган эканлар.

Мақсадимизни англагач, илмий мудар бизга қуйидагиларни гапириб берди:

- Мактабимизда 644 нафар ўқувчи билим олади. Кўриб турганингиздек газ етиб келмаган. Синф хоналаримиз совуқ. Ўқув йилининг бошларида туман халқ таълими бўлими томонидан моддий ёрдам тариқасида ажратилган қишқи кийим-бош, оёқ кийимларини 27 нафар ўқувчига тарқатдик холос. Лекин мактабимизда кам таъминланган оилаларнинг фарзандлари талайгина. Уларнинг айримлари енгил кийимларда келишади. Шароит билан танишган туман халқ таълими бўлимидаги киллар дарс соатларини қисқартиришлар, деб кетишди. Уларнинг розилиги билан дарс соатлари 30 дақиқадан, танаффуслар эса 10 дақиқадан бўляпти. Болалар бироз ўйнаб, югуриб, исиниб олишади-да...

Ўтган йили «Хуррият» газетасида ҳам мактабимиздаги газ муаммоси ҳақида танқидий мақола эълон қилинганди. Шундан кейин мактабимизнинг бешта синф хонасига иситиш системаси ўрнатиб берилди. Бироқ, барибир хоналаримиз совуқлигича қолди. Айрим ота-оналаримиз ўз фарзандларини тўрт- беш чақирим наридаги шароити анча яхши бўлган 42- мактабга олиб кетишяпти...

- Мактабимизнинг таъмирлаш ишларига, синф хоналари, йўлчалар, фойеларни безатиш ишларига директоримиз Умида опа бош-қош бўляптилар, - дея сўхбатимизга қўшилди касаба уюшмаси раиси Бахтигул опа Алиметова.

Улар ҳамроҳлигида синф хоналарини кўздан кечирдик:

Ўқув кўргазмалари йиртилган, айримларининг ўрни бўм-бўш. Йўлаклардаги деразаларга парда олмаган, синф хоналари қоронгу... Болалар қадин кийимларга ўраниб ўтиришибди. Йўлаклар, синфлар худди ойлаб тозиланмаганга ўхшарди. Бир



Тахририятимизга 60-70 ёшларни қоралаб қолган икки отахон кириб келишди.

-Биз Тошкентнинг шундоққина «биқини»дан, Янгийўл туманидаги А.Ортиқов қишлоқ фуқаролар йиғинига қарашли А.Ортиқов жамоа хўжалигидан келдик. Мен «Галаба» маҳалласининг оқсоқоли Қувватбек ота Абдилов бўламан. - Мен эса Худойберган ота Раҳмоновман, -дея ўзларини таништиришди улар. -Набираларимиз қишлоғимиздаги 12-ҳамда, 15- мактабларда ўқишади. Ҳар куни уларни барвақт мактабга кузатиб кўямиз. Орадан ҳеч фурсат ўтмай, бирин-кешиб уйга қайтиб келишади. Сабабини суриштирсак, мактабимиз совуқ бўлгани учун уйга жўнатиб юборишди, дейишади. Кошки эди совуқ мактабдан келиб иссиққина уйларида исиниб олишса?.. Уйларимиз ҳам мактабдан қолншмайди, совуқ. Ҳали униси касал, ҳали буниси. Бу ҳам етмагандек, электр энергияси ҳам пасайиб кетган. Болалар дарс тайёрлашга жуда қийналишади...

Отахонлар ҳамроҳлигида Янгийўл туманига отландик. 15-мактабга кетаверишда мактабдан қайтаётган ўғил-қизларга дуч келиб, уларни саволга тутдик:

-Болалар, дарс тугадими? Неча соат ўқидинлар?

-3 соат ўқидик, -деди 8-«А»синфда ўқийдиган бир бола.

-Йўқ, олти соат дарс бўлди, -деди унинг гапини бўлиб синфдоши Малоҳат.

Қай бирининг гапига ишонишни билолмай, мактаб ҳовлисига кириб бордик.

синф хонасида ўқувчиларни учратдик. Улар сув йўқлигини баҳона қилиб, синфларини чангитиб тозалашаётган экан.

Соат кундузги бир бўлишига қарамасдан мактаб ошхонасига каттагина қулф осилибди.

Биринчи қаватки шу аҳволда бўлса, иккинчи қаватни кўрмай кўя қолдик. Мактаб ҳожатхонасини-ку гапирмаса ҳам бўлади: оёқ босишга жой йўқ.

Наҳотки, синф хоналарига чироқ ўрнатиш, ҳожатхонани тозалатиб қўйиш учун ҳам ташқаридан ёрдам кутиб ўтириш керак бўлса? Мактабда сув бўлмаса, атрофда бор-ку!..

Нохуш кайфият билан қўшни мактабга - Саид ота қишлоғида жойлашган 12-таянч мактабига йўл олдик.

ИККИ МАКТАБ, ИККИ МАНЗАРА

Мактаб ҳовлисига киришимиз биланоқ бу ердаги манзаранинг бутунлай бошқача эканлигига гувоҳ бўлдик. Мактаб ҳовлисига ўрнатилган сув чиқариш мосламаси атрофи болалар билан гавжум эди. Бориб қарасак, ўқувчилар оёқ кийимларини ювишаётган экан. Бино жуда эски бўлса-да, йўлакларини озода, кўргазмалари қуроллар билан безатилган

деразаларга дид билан пардалар илинган...

Бизни мактаб директори- Барчиной опа Акбердиева ҳамда бир гуруҳ ўқитувчилар қарши олишди.

Айтишларича, бу мактаб тахминан 30-йилларда қурилган бўлиб, 1962 йилда мактаб учун мослаштирилган экан. Ўзбек ва қозоқ тилидаги мактабда 330 нафар ўқувчи таҳсил олаётган экан. Беш йилдан буён шу мактабда илмий мудар бўлиб ишлаб келаётган Барчиной опанинг директор бўлганига атиги бир йил бўлибди. Ана шу қисқа фурсат ичида йўқ жойдан кутубхона учун хона мослаштиришибди, қўшимча синф хонаси ажратишибди. Мактабга

ҳомийлик қилаётган Янгийўл туманидаги дон маҳсулотлари уюшмаси кўмаги билан томнинг чакка ўтаётган қисмини таъмирлашибди. Мактаб атрофи девор билан ўралибди.

Синф хоналарни кўздан кечириш бошладик. Пастқам, кичкина бўлса ҳам озода, шинам хоналар турли ўқув кўргазмалари билан жиҳозланган, ҳатто, янги йилга тараддуд ҳам кўриб, қоғоздан ясалган ўйинчоқлар билан безатиб қўйишибди. Лекин... бу ерда ҳам газ йўқ, хоналар совуқ. Ўқувчилар қалин уст- бошлари билан дарс тинглашга мажбур бўлишяпти. Эътиборимизни яна бир нарса тортди: Ҳар бир синф деразалари целлофан билан беркитилган. Бу ҳам мактаб раҳбарининг ўқувчилар саломатлигига бефарқ эмаслиги, ўз касбига виждонан ёндошаётганининг далолати эди. Шу куни 3-«А» синфда саккиз ўқувчи, 4-«А» синфда эса тўрт нафар ўқувчи бетоблиги боис дарсга келишмабди.

- Совуқ бўлганлиги сабабли 45 дақиқалик дарс соатларимизни 35 дақиқадан ўтаяпмиз, - дедилар Барчиной опа. - Бор йўғи тўққизта синф хонамиз бор. Ўқувчиларимиз ҳам, ўқитувчиларимиз ҳам мактабни, синфларини озода сақлашга ҳаракат қиладилар. Иш юзасидан жуда кўп мактабларга бораман. Замоनावий типда қурилган мактаблардаги шарт-шароитларни, компьютерлар ёнида ўтириб сабоқ олаётган ўқувчиларни кўриб ҳавасим келиб кетади. Қани энди бизнинг ўқувчиларимиз ҳам янги, замонавий, барча шароитлари муҳайё бўлган бинода дарслар тингласалар, дея орзу қиламан...

Мана, бир маҳалла, икки қўшни мактабдаги аҳвол, шарт-шароит билан танишдингиз. Қаранг-а, бири деярли янги бино, аммо у хароб, иккинчиси жуда эски, бироқ янгидек.

Яхши шароитни ҳеч ким четдан келиб яратиб бермайди. Ҳар ким ўзи учун ҳаракат қилса, изланса, кўп нарсага эришса бўлади. Бунинг учун эса хоҳиш, гайрат, ҳавас, энг муҳими, виждон керак. Яна, болаларни чин дилдан севамоқ керак!

Мақсадимиз - бир мактабни қоралаб, иккинчисини кўкларга кўтариш эмас. Биз бор ҳақиқатни ёздик, холос. Шояд, «Оналар ва болалар» йили деб эълон қилинган 2001 йилимизда бу мактабларнинг ўқувчиларига ҳам иссиқ синф хоналарида ўқиш nasib этса.

Биз бу мавзуга яна қайтамиз.

**Феруза ЖАЛИЛОВА,
Феруза ОДИЛОВА.**

«АЛИШЕРОБОД» ЧИНДАН ҲАМ ОБОДМИ?

Кундан-кун юртимиз янада ободлашиб, чирой очиб бормоқда. Лекин мустақиллик шамоли бизлар яшаётган «Алишеробод» маҳалласига етиб келмаяпти чоғи, маҳалламиз атрофида ҳеч қандай ижобий ўзгариш кўзга ташланмаяпти. Биз кўп қаватли уйлاردан бирида яшаймиз. Яшаш жойларимиз мутлақо талабга жавоб бермайди. Куйи қаватлардаги дондонларда совуқ сув базур жилдираб турса, юқори қават-

ларга қишин-ёзин умуман чиқмайди.

Уйимиз деразасидан болалар боғчаси кўриниб туради. Бир вақтлар атрофи ўрик, шафтоли, гилос каби мевалар билан ўралган шинамгина «Қуёнча» болалар боғчаси болажонларнинг қувноқ овозлари билан тўлиб турарди. Ҳозирда эса у ташландиқ аҳволга келиб қолган. Ёнгинамиздаги дори ишлаб чиқарилган қўшма корхона ҳам, 9-мак-

Зиратчи

таб ҳам бизга номаълум бўлган сабабларга кўра ишламаяпти.

Юртбошимиз 2001-йилни «Оналар ва болалар» йили деб эълон қилдилар. Бу йилда саҳоватпеша, тадбиркор амакиларимиз ҳимматлари билан ана шу масканлар ишга тушиб, «Алишеробод» имиз чиндан ҳам обод бўлса.


**Сурайё АЙИТОВА,
Тошкент вилояти,
Қибрай тумани.**

ҲАММА ШОШАР ИШГА, ЎҚИШГА ...

Олий ўқув юртига ўқишга кирганимга уч ой бўлди-ю транспорт воситаларига эҳтиёж сеза бошладим. Ҳар куни дарсларга кечикмаслик учун барвақт туриб, ҳаракат қиламан. 101-тез юрар автобусда юраман. Бу автобус доимо мен каби талабалар билан лиқ тўла бўлади. Одам кўплигиданми, кўпинча бизнинг бекатда тўхтамай ўтиб кетаверилади. Таксидами ё бирор автобусда етиб боргунча дарсага кечга қоламиз.

Эрталаб ҳамма ишга, ўқишга шошадиган пайтда транспортларни бироз кўпайтириб қўйишнинг имкони йўқмикин-а?

**Хуришда НАЗАРОВА,
Ўзбекистон Миллий Университети журналистика
факультети талабаси.**



Kunlarning birida uyda akalarim bilan dars tayyorlab o'tirgan edim. Birdan chiroq o'chib, hamma yoqni qorong'ulik qopladi. Akam shag'am yog'dusida astronomiyadan dars tayyorlab o'tirardilar, men esa stolga boshimni qo'yib, ularni tinglab o'tirdim. Birdan hovlimiz yorishib ketdi. Tashqariga chiqishim bilan o'zga sayyoraliklarning ulkan kemasiga ko'zim tushdi. Endi uydagilarni chaqirish

to'plashimiz kerak. Shuning uchun sendan yordam so'radik. Mayli, roziman. Unday bo'lsa boshladik, bizni yo'q deb tasavvur qilib, mana bu asbobda yerni kuzatasan va ko'rganlarini xotirjam so'zlab berasan. Yer bilan aloqa bog'lansin. Yerning ancha joyini suv bosgan ko'rinadi, quruqliklar juda kam qolibdi. Mana bu bir tuflini kim qoldirib ketdiykin. Ha,

SHIRIN TUSH

maqsadida uy tomon o'girilgan edim, ne ko'zim bilan qarayki uydan nom-nishon yo'q. Ichimda qayerdaman o'zi, deb tinmay savol berardim. Shunda birdan: "Oydasan, bolakay, oyda" - degan ovoz eshitildi. Demak, oyda ekanmanga?! Sira ham ishongim kelmayapti. "Ishonaver", - qiziq ovoz egasi qayerda ekan? Shunda birdan yonimda robot sifat odam paydo bo'ldi. Hali sizlarmi, meni yerdan olib qochib ketgan, qani darrov yerga olib tushib qo'yinglarchi", - dedim qo'rquv aralash ohangda. Iya, anavi shar nega aylanyapti, nima u -? Ikki savolni shartta ko'ndalang qo'ydim. Yer, seni o'sha yerdan olib keldik. Ko'nglim sal yozilgandek bo'ldi. Nima men sizlarga tajribaga boqilgan quyonmidim olib kelaversangiz. Biz yer haqida ma'lumot

aytgancha, yangi zelandiya-ku. Manabu bir poy etikchi- Italiya emasmi. Xuddi o'zi. Qo'limdagi asbobni qizil tugmasini bosgan edim, birdan odamlar ko'rina boshladi. Ular negadir ko'zimga oddiygina bo'lib ko'rinishdi, ulardan ko'ra yonimdagi temir yaqinliyroq ko'rinadi. Boshimga bir mush tushdi. "Nega urasan", - ahmoq, deb shartta o'mimdan tursam akalarim, dadam, oyim, singillarim o'tirib olib rosa ustimdan kulishayotgan ekan. Undan chiqdi astronomiyani o'ylab, tushimni o'ngimda gapirib beribmanga. Yaxshiyam anavi robot oldida o'zimni katta tutibman. Lekin juda zo'r tush ko'ribmanga. Afsus qanday shirin tush.

Munajat SADRIDDINOVA
nafis sanat litseyning
10-A sinf o'quvchisi

MASHQLAR

Ahmad Toshmatdan 5 yosh katta. Agar ularning yoshlari yig'indisi 37 bo'lsa, har birining yoshi nechada?


Aytaylik, Sizning 10000 so'm haqd pulingiz bor. Kooperativ uy sotib olishda kami bilan uy narxining 20% ini to'lash kerak. Siz ko'pi bilan bahosi qancha bo'lgan uyni sotib olishingiz mumkin?

Haydovchi 40mil/soat tezlik bilan uyidan jo'nab ketdi. Yarim soatdan so'ng muhim bir narsani

unutib qoldirganini aniqlagan xotini erining orqasidan (marshrutini bilgan holda) 55 mil/soat tezlik bilan quvib ketdi. Eriga yetib olish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

Otaning yoshi bolasinikidan 5 marta katta, 7 yildan keyin uning yoshi bolasining yoshidan 3 marta katta bo'ladi. Ularning hozirgi yoshi qancha?

Onaning yoshi qizinikidan 3 marta katta, 10 yildan keyin esa uning yoshi qizinikidan 2 marta katta bo'ladi. Ularning hozirgi yoshi qancha?



БИЛАҒОН БОЛАЛАР ДИҚҚАТИГА!

Сиз «Тонг юлдузи» газетаси саҳифаларида учрайдиган хатоларни албатта топиб, бизга ёзиб юборинг. Чунки атайин билагон ва топагонлигингизни синаш мақсадида ҳарфлар тушириб қолдирилади ёки кўшиб кўйилади. Тиниш белгилари ўз ўрнида ишлатилмайди...

Мақсадимиз: билимли бўлинг. Чунки осмонни юлдузлар, ерни эса билимлилар безар.

Onalar yozadi BOLAJONIM

Bolajonim o'sgin tezroq, Yomonlardan bo'lg'in yiroq. Orzularim ko'p va serob, Yo'llaringga bo'lay chiroq.

O'tadi kun, ulg'ayyapsan, Botadi kun, ulg'ayyapsan. Bekamu ko'st, o'ynab kulib, O'sib durkun, ulg'ayyapsan.

Ko'z tikkanmiz senga bolam, Kamol topgin chekmay alam. Vatan bugun bo'ldi hurr'am, Donishlarga muxtoj olam. Bolajonim o'sgil tezroq.

Anora YUSUPOVA.



Пойтахтни водий билан боғловчи довон йўлида бундан 2-3 йил аввал ҳам баланд тоғ йўлига кўтарилишда катта “шер” ҳайкали борлигини кўриб ажабланардик.

Дада, нега тоққа “шер” ҳайкали кўйилган, деб сўрардик. Дадам эса торгина тоғ йўлида жуда эҳтиёткорлик билан машинани бошқариб:

- Чунки бу йўлдан “шер” каби довораклар юради-да, - дердилар.

Чиндан ҳам бу довон йўли хавфли йўл ҳисобланарди.

Эндиликда-чи? Мустақиллигимизнинг 9 йиллиги арафасида ана шу тоғ йўлида янги тоннел ишга тушибди. Кўрсангиз кўзингиз қувнайди, энди фақат “шер”дек довораклар эмас, ҳатто оддийгина шофёрлар ҳам манзил сари беҳавотир бормоқдалар...

Ҳар гал ана шу кенг, равон кўчалардан юрсам, дадажонимни хотирлайман.

Хотира - ўтмишни эслатиб мени фикр карвонларига бошламоқда. Менинг содагина, пок ниятли, меҳр-оқибатли дадажоним. Ушбу дилномада оддийгина сўзлар учраса ҳам, аммо қалбимда буюк ҳислар жўш ураяпти. Бу ҳислар лиммолим меҳр ва соғинчандир. Янги тоннел ўтган равон йўллардан юрсангиз бўлмасмиди?!

Улуғвор тоғларга тикиламан. Улар ҳам гўё сизни сўроқлаётгандай... Тоғлар, қотиб қолган қоялар! Сиз ҳам менинг дадамни билардингиз-а, дейман? Тоғлар ҳа, деб, бош силкигандек бўлади:

“Танир эдик, Ангрндан қиш бўйи кўмир юклаб ўтадиган, водий аҳлига иссиқлик етказиб берадиган. Йигитали исмли “қайсар” шофёр бор эди. Аммо у пайтлар бағримиз қалин қорга, кўзларимиз тўфонга тўла эди. 9 йиллик истиқлол тўйи бизларга ҳам етиб келди. Машиналар тоғ бағрида қалин қорларни ҳам эритиб, довон йўлимиз ойдинлашиб бормоқда”, дейишаётгандек...

Менинг шофёр дадажоним, сиз йўлларни ардоқлардингиз. Бу йўлларда қанчалар эзгу ишлар шоҳиди ҳам бўлгансиз. Ҳаётда бахт билан бахтсизлик ёнма-ён яшар экан. Қаранг, янги довон йўли очилган кун сизни сўнгги манзилга кузатдик.

Ойдин йўллар ойга етди, дадажоним, Сиз ўйлаган йўллар эди карвон бўлди. Ҳюкюлатсиз кўз тикман оқилларга, Тоғ йўлида мўъжизалар содир бўлди. Бошимдаку осмоним бор, барибир, Онам мени осмоним деб сўзди. Буюк Шарқнинг оддийгина қизиман, Отам йўқ деб, юрак, бағрим қуяди.

Бугунги кунда бу йўллар “янги тоннел” деб номланса-да, мен “дадамнинг қадрдон ва машаққатли йўллари”, деб атайман.

Маъмура МАДРАҲИМОВА.

Ўзбекистон болалари ва ўсмирларининг газетаси

Муассислар:
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ МАТБУОТ КЎМИТАСИ, ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ, «СОҒЛОМ АВЛОД УЧУН» ХАЙРИЯ ЖАМҒАРМАСИ

БОШ МУҲАРРИР:
Умида АБДУАЗИМОВА

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:
Шухрат АҲМЕДОВ,
Йўлдош САИДЖОНОВ,
Ойниса МУСУРМОНОВА,
Комил ЮСУПОВ,
Мукаррама МУРОДОВА,
Суннатилла ҚЎЗИЕВ,
Эргашвой САРИКОВ.

Ношир
«Ijod dunyosi»
нашриёт уйи

Ижарадаги Тошкент Матбаа комбинатида офсет усулида 39092 нусхада босилди. Ҳажми 2 босма табоқ.
Буюртма - К-8455
Газетани Азиз ТИЛЛАХЎЖАЕВ саҳифалади.
Навбатчи:
Гулюз ВАЛИЕВА.

Рўйхатдан ўтиш тартиби № 000137
Манзилимиз 700129, Тошкент шаҳри, Навоий кўчаси, 30-уй.
Индекс 198
Тел: 144-62-34.